

Vatanni sevish iymondandir

1-fevral kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti «Yer resurslarin boshqarish» fakulteti, Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosida ommaviy axborot vositalari hamda jamoatchiligi vakillari bilan hamkorlikda "Vatanparvarlik - oliy fazilat" mavzusida ma'naviy-marifiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirning birinchi qismida O'zbekiston Respublikasi Olimpiya qo'mitasi Respublika sport tibbiyot ilmiy amaliy markazi psixologi Zilola To'laganovaning treningi bo'lib o'tdi.

Tadbirning ikkinchi qismida O'zbekiston xalq ta'lim a'lochisi, yozuvchi Obiddin Mahmudovning FARZANDNOMA kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi. Kitob haqida tayyorlangan videorolik va yozuvchi dramaturg Usmon Azimning "Kunduzsiz kechalar" spektaklidan parcha namoyish etildi. Tadbir qiziqarli savol javob formatida bo'lib o'tdi. Faol qatnashgan 4- kurs talabalari Sh.Abdug'aniyev, B.Yunusov, J.Abdurazzoqov va O.Abdullayevlar yozuvchi tomonidan FARZANDNOMA kitobi va audio yozuvlari jamlangan CD disklar bilan taqdirlandi. Ushbu tadbirdan talabalar o'zlari uchun juda foydali ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Farzandnoma tilga kirganda...

Tarbiya- ota-ona bilan farzand o'rtasidagi ipsiz bog'lovchi mustahkam rishta.

Mehr va qattiqqo'llik, o'zaro ishonch va samimiyat ramzi.

Go'zal tarbiya - o'z vaqtida, lozim tarzda hamda mantiqiy davomiylik asosida olingan to'g'ri tarbiyaning samarasi hisoblanadi.

Bilim - insoniyat topgan javohirlar sandig'ining nodiri, aql shamchirog'i, ixtirolarning a'losi, ne'matlarning noyobi erur...



YRB fakulteti yoshlar yetakchisi Sh. Hamidullayev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov